



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ALISHER NAVOIYNING TARIXIY ASARLARI — “TARIXI MULUKI AJAM” VA “TARIXI ANBIYO VA HUKAMO”DAGI ARABCHA O‘ZLASHMALAR

Ne'matullayev Ismoilxon Ilhom o'g'li
Oriental universiteti, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning tarixiy yo‘nalishdagi “Tarixi muluki ajam” va “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlarida uchraydigan arabcha o‘zlashmalar (arabizmlar)ning qo‘llanish sabablari hamda ularning leksik-semantik va funksional-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda arabizmlarning matndagi ishtiroki diniy, ilmiy-ma’rifiy, madaniy-adabiy va uslubiy omillar bilan izohlanib, ularning tarixiy bayonning aniqligi, diniy-axloqiy mazmunning ifodalanishi hamda badiiy salobatni kuchaytirishdagi roli yoritiladi. Arabcha o‘zlashmalar mazmuniga ko‘ra diniy terminologiya, siyosiy-ijtimoiy unvonlar, ilmiy-adabiy istilohlar, axloqiy-falsafiy tushunchalar hamda matn ohangini kuchaytiruvchi ibora va duolar kabi guruhlariga ajratiladi. Natijada Navoiy tarixiy asarlarida arabizmlar tilning boyishiga xizmat qiluvchi, tarixiy va diniy mazmunni ixcham va ta’sirchan ifodalovchi muhim vosita ekani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Tarixi muluki ajam, Tarixi anbiyo va hukamo, arabcha o‘zlashmalar, arabizm, leksik-semantik tahlil, funksional-uslubiy xususiyat, diniy terminologiya, siyosiy unvonlar, ilmiy istilohlar, axloqiy-falsafiy tushunchalar, tarixiy matn.

АРАБСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ — «ТАРИХИ МУЛУКИ АДЖАМ» И «ТАРИХИ АНБИЙО ВА ХУКАМО»

Неъматуллаев Исмоилхон Илхом угли
Oriental университет, магистрант

Аннотация

В статье анализируются причины употребления арабских заимствований (арабизмов) в исторических произведениях Алишера Навои «Тарихи мулуки аджам» и «Тарихи анбийо ва хукамо», а также их лексико-семантические и функционально-стилистические особенности. В исследовании использование арабизмов в тексте объясняется религиозными, научно-просветительскими, культурно-литературными и стилистическими факторами; раскрывается их роль в обеспечении точности исторического изложения, выражении религиозно-нравственного содержания и усилении художественной выразительности и смысловой весомости текста. По своему содержанию арабские заимствования классифицируются на религиозную терминологию, общественно-политические титулы, научно-литературные термины, нравственно-философские понятия, а также формулы и молитвенные выражения, усиливающие интонацию текста. В результате обосновывается, что арабизмы в исторических произведениях Навои выступают важным средством обогащения языка и компактного, выразительного выражения исторического и религиозного смысла.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Тарихи мулуки аджам», «Тарихи анбийо ва хукамо», арабские заимствования, арабизм, лексико-семантический анализ, функционально-стилистическая характеристика, религиозная терминология, политические титулы, научные термины, нравственно-философские понятия, исторический текст.

ARABIC LOANWORDS IN ALISHER NAVOI'S HISTORICAL WORKS — “TARIKHI MULUKI AJAM” AND “TARIKHI ANBIYO VA HUKAMO”

Nematullayev Ismoilkhon Ilhom o'gli
Oriental University, Master's Student

Abstract

This article analyzes the reasons for the use of Arabic loanwords (Arabisms) in Alisher Navoi's historical works *Tarixi muluki ajam* and *Tarixi anbiyo va hukamo*, as well as their lexico-semantic and functional-stylistic characteristics. The study explains the presence of Arabisms in the texts through religious, scholarly-enlightenment, cultural-literary, and stylistic factors, and highlights their role in ensuring the accuracy of historical narration, expressing religious and ethical meanings, and strengthening the artistic gravity and stylistic solemnity of the discourse. In terms of meaning, Arabic loanwords are classified into religious terminology, socio-political titles, scholarly and literary terms, moral-philosophical concepts, as well as Arabic formulas and devotional expressions that reinforce the tone of the text. The findings substantiate that, in Navoi's historical writings, Arabisms function as an important means of enriching the language and conveying historical and religious content in a concise and expressive manner.

Keywords: Alisher Navoi, *Tarixi muluki ajam*, *Tarixi anbiyo va hukamo*, Arabic loanwords, Arabism, lexico-semantic analysis, functional-stylistic feature, religious terminology, political titles, scholarly terms, moral-philosophical concepts, historical text.

Alisher Navoiy o'zining ko'plab asarlarida, xususan, tarixiy yo'nalishdagi “**Tarixi muluki ajam**” va “**Tarixi anbiyo va hukamo**” asarlarida arab tilidan o'zlashgan leksik birliklarga keng o'rin bergan. Mazkur arabcha o'zlashmalar o'zbek adabiy tilining boyishida, mazmun va shakl jihatdan takomillashuvida muhim rol o'ynagan. Navoiy qo'llagan arabizmlar nafaqat lug'aviy qatlamni kengaytiradi, balki ma'no nozikliklarini ifodalash, diniy-axloqiy, siyosiy hamda ilmiy atamalarini aniqlash va ravshan yetkazish vazifasini ham bajaradi.

Ushbu ikki asar janri va uslubiga ko'ra tarixiy ma'lumotlar, payg'ambarlar va podshohlar qissalarini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, ular orqali Navoiy arab madaniyati hamda diniy-falsafiy tafakkurning o'zbek adabiy tilidagi in'ikosini namoyon etadi. Ayniqsa, diniy terminologiya, tarixiy atamalar, siyosiy unvonlar va axloqiy qadriyatlar ifodasida arabcha o'zlashmalar faol qo'llanadi.

Manba va metodlar

Tadqiqot manbasi sifatida Alisher Navoiyning “**Tarixi muluki ajam**” hamda “**Tarixi anbiyo va hukamo**” asarlarida uchraydigan arabcha o'zlashmalar, jumladan, so'zlar, unvonlar, terminlar, diniy formulalar va iboralar tanlandi. Tadqiqotda bir nechta metodlar qo'llandi. Xususan, tavsifiy-analitik metod orqali arabizmlarning matndagi qo'llanish konteksti va vazifasi izohlandi; leksik-semantik tahlil yordamida arabcha birliklarning lug'aviy ma'nosi hamda asar tarkibidagi semantik yuklamasi aniqlandi; funksional-uslubiy yondashuv asosida arabizmlarning matnga ta'sirchanlik, salobat va diniy-falsafiy ohang berishdagi roli baholandi; tasniflash metodi bilan esa arabizmlar diniy, siyosiy-ijtimoiy, ilmiy-adabiy, axloqiy-falsafiy hamda duoviy iboralar guruhlariga ajratilib tahlil qilindi.

Adabiyotlar sharhi

Alisher Navoiy ijodi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar asosan XX asrda keng rivojlandi va bu davrda uning merosini turli yo'nalishlarda o'rgangan salmoqli ilmiy maktab shakllandi. V. Bartold, Ye. Bertels, S. Ayniy, P. Shamsiyev, Oybek, M. Shayxzoda, O. Sharafiddinov, T. Jalolov, G'. Karimov, H. Sulaymonov, A. Qayumov, N. Mallayev, A. Hayitmetov, S. G'aniyeva, N. Komilov, Sh. Sirojiddinov, I. Haqqulov va boshqa olimlar Navoiy ijodini adabiy-tarixiy, g'oyaviy-ma'naviy hamda poetik jihatlardan tahlil qilib, uning she'riyat va nasrdagi o'rni, tarixiy

ahamiyati kabi masalalarga alohida e'tibor qaratdilar [8–13].

Navoiyning til xususiyatlariga doir izlanishlar ham kengdir: A. Nishonov, A. Karimov, A. M. Shcherbak, Olim Usmon, X. Doniyorov, A. Rustamov, E. Fozilov, B. Bafoyev, A. K. Borovkov, S. Ashirboyev, Z. Hamidov, Z. Is'hoqova, I. Nosirov, X. Jo'rayev singari tadqiqotchilar uning lug'aviy boyligi, uslubiy vositalari va til taraqqiyotidagi o'rnini yoritganlar. Arabizmlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish bo'yicha M. Tojiboyevaning "Ilk devon" misolidagi tadqiqoti ham muhimdir [8–13].

Shuningdek, xorijiy olimlar ham Navoiy hayoti va ijodini o'rganishga munosib hissa qo'shganlar. Z. Kleynmixel turkiy adabiyot va Navoiy merosini til bilimi asosida chuqur tadqiq etgan, venger turkshunosi B. Peri esa usmonli klassik adabiyotida Navoiyning o'rniga bag'ishlangan ishlar yozgan. Mark Tuotant, Go'nul Alpay-Tekin, O'lku Chelik, Tekin Shinasi va Vahit Turk kabi olimlarning izlanishlari ham bu yo'nalishda e'tiborga molikdir [8–13].

Asosiy qism

Alisher Navoiy asarlarida arab tilidan kirib kelgan so'zlarning qo'llanishi bir necha omillar bilan izohlanadi:

- **Diniy-ta'lim omili.** Qur'on va hadislar tili arab tili bo'lganligi sababli islomiy-ma'rifiy atamalar asosan arab tilidan olingan. ***"Tarixi anbiyo va hukamo"***da payg'ambarlar hayoti bayon qilinishi arabcha diniy terminlarning ishlatilishini tabiiy ehtiyoj sifatida yuzaga chiqargan [2].
- **Ilmiy-ma'rifiy omil.** O'rta asrlarda Markaziy Osiyo ilm-fani taraqqiyotida arab tili ilm tili sifatida faol qo'llangan. Shu bois tarixiy va ilmiy izohlar berilishida arabcha ilmiy istilohlar keng o'rin olgan [1; 2].
- **Madaniy-adabiy omil.** O'rta asr o'zbek adabiyoti arab va fors adabiyoti ta'sirida shakllangan. Navoiy arab adabiyoti hamda falsafiy merosidan faol foydalangan [1; 2].
- **Uslubiy omil.** Arabcha so'zlar asarga badiiy shiddat, ilohiy ruh va tarixiy haqiqatni ifodalash qudratini olib kiradi. Arabizmlar iboralar matnga ta'sirchanlik va salobat baxsh etadi [1; 2].

"Tarixi muluki ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlarida uchraydigan arabizmlarni quyidagi shartli guruhlariga ajratish mumkin:

Birinchi guruh — diniy terminologiya: *taolo* (تعالى), *amr* (أمر), *qazo* (قضاء), *qadar* (قدر), *duo* (دعاء), *shukr* (شكر), *sabr* (صبر).

Ikkinchi guruh — siyosiy va ijtimoiy unvonlar: *malik* (ملك), *amir* (أمير), *sulton* (سلطان), *hukm* (حكم), *qavm* (قوم).

Uchinchi guruh — ilmiy va adabiy istilohlar: *ilm* (علم), *hikmat* (حكمة), *falsafa* (فلسفة), *tarix* (تاريخ), *nasl* (نسل).

To'rtinchi guruh — axloqiy va falsafiy tushunchalar: *adl* (عدل), *karomat* (كرامة), *rahmat* (رحمة), *gunoh* (ذنوب).

Beshinchi guruh — matn ohangini kuchaytiruvchi arabcha iboralar va duolar: *Bismillahir Rohmanir Rohim* (بسم الله الرحمن الرحيم), *Alhamdulillah* (الحمد لله).

Alisher Navoiy tarixiy asarlarida arab tilidan kirib kelgan o'zlashmalarni nafaqat mustaqil so'z sifatida, balki iboralar, murakkab so'z birikmalari va majoziy ifodalar shaklida ham keng qo'llagan. Xususan, diniy va tarixiy voqealar tasvirida arabcha terminlar matnga o'ziga xos badiiy kuch, islomiy ma'no yuki hamda uslubiy salobat bag'ishlaydi [10].

Masalan, "Tarixi anbiyo va hukamo" asarining kirish qismi "Bismillahir Rohmanir Rohim" (بسم الله الرحمن الرحيم) iborasi bilan boshlanadi. Bu holat nafaqat diniy urf-odatga amal qilishni, balki arab tilining so'z boyligini asarning umumiy ohangiga singdirish jarayonini ham ko'rsatadi. Shu bilan birga, matnda *rahmat*, *mag'firat*, *taqvo*, *savob* kabi arabcha so'zlar ko'p uchraydi [2].

"Tarixi muluki ajam" asarida esa tarixiy shaxslar, sulolalar va davrlar haqida so'z yuritilar ekan, Navoiy *hukm*, *amal*, *sulton*, *saltanat* kabi arabcha atamalardan foydalanadi.

Natijada tarixiy voqealar kitobxonga tushunarli, davr ruhi bilan uyg'un va ifodaviy jihatdan salobatli tarzda bayon etiladi [2].

Quyidagi arabcha o'zlashmalar asar matnidan aniq misol sifatida keltirilishi mumkin:

Arabcha so'z	Ma'nosi	Qo'llanish doirasi
<i>Amr</i> (أمر)	Farmon, buyruq	Podshohlarning farmonlari kontekstida
<i>Duo</i> (دعاء)	Allohdan iltijo, so'rash	Payg'ambarlar va avliyolarning ibodatlarini tasvirida
<i>Rahmat</i> (رحمة)	Mehr, shafqat	Ollahning bandalariga ko'rsatgan marhamati sifatida
<i>Ilm</i> (علم)	Bilim	Hikmat va ilmiy tafakkur haqida so'z borganda
<i>Malik</i> (ملك)	Podshoh	Sulola va shohlar haqida hikoya qilingan sahnalarda
<i>Qazo</i> (قضاء)	Qaror, taqdir	Olamning yaratilishi va inson umrining tayinlanishida

Bu arabizmlar birgina tarjima uchun emas, balki matnning diniy-falsafiy asosini mustahkamlash, tarixiy jarayonlarning ilohiy taqdirga bog'langanligini ko'rsatish uchun ham xizmat qilgan.

“**Tarixi anbiyo va hukamo**” asarida payg'ambarlar tarixi hikoya qilinarkan ekan, arab tilidan kirib kelgan istilohlar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan:

- “**Odam Safiyulloh**” — bu yerda *Safiyulloh* (صفي الله) arabcha ibora bo'lib, “Alloh tomonidan tanlangan” degan ma'noni bildiradi [7].
- “**Jabroil alayhissalom**”, “**Azroil alayhissalom**” kabi farishtalar nomlari ham to'liq arabcha shaklda, diniy termin sifatida qo'llangan.
- “**Qiyomat**”, “**sajda**”, “**taolo**” kabi tushunchalar arab tilidan to'g'ridan-to'g'ri olingan bo'lib, ular matnda diniy konsepsiyani aniqlashtirib beradi.

Arabcha o'zlashmalar diniy va tarixiy tafakkurni bayon qilishda matnga muqaddaslik, jiddiylik va tarixiy ishonchlik bag'ishlaydi.

Alisher Navoiy o'zining tarixiy asarlarida arabcha o'zlashmalarni oddiy lug'aviy shaklda emas, balki ularning madaniy, diniy va ma'naviy qatlamdagi semantik kuchidan ham faol foydalangan. Arabcha so'zlarning matndagi o'rni faqat sinonimik boylikni oshirish emas, balki ularning o'ziga xos ma'naviy va falsafiy yukini saqlab qolish va o'quvchiga yetkazish vazifasini ham bajaradi.

Madaniy-uslubiy yuklama nuqtayi nazaridan arabizmlar quyidagi funksiyalarda ishtirok etadi:

Matnga ilohiy ruh va salobat bag'ishlash uchun. Masalan, *taolo*, *qazo*, *qadar*, *duo*, *shafqat* kabi so'zlar orqali voqealar nafaqat tarixiy, balki ilohiy taqdir bilan bog'lanib ko'rsatiladi. Tarixiy shaxslarning harakatlari va qismatlari ilohiy irodaga muvofiq tasvirlanadi [12].

Tarixiy shaxslarning maqomini oshirish maqsadida. Payg'ambarlar yoki sulolalar haqida gap ketganda, *alayhissalom*, *rahmatullahi alayh*, *sulton*, *malik* kabi arabcha unvonlar ularning muqaddasligi va hurmatini ifodalaydi [1; 2].

Estetik ohang yaratish uchun. Arab tilining ohangdorligi Navoiy matniga o'ziga xos badiiy nafislik beradi. Masalan, *Bismillahir Rohmanir Rohim*, *Alhamdulillah* kabi iboralarning matnda muayyan nuqtalarda paydo bo'lishi voqeaga tantanavorlik baxsh etadi.

Arabcha o'zlashmalar ko'pincha o'zbek tilida mavjud bo'lgan sinonim so'zlardan farqli ravishda o'ziga xos ma'naviy va diniy ma'no yuklaydi.

Arabcha so'z	Lug'aviy ma'nosi	Asarda qanday semantik yuklama beradi
<i>Qazo</i> (قضاء)	Qaror, belgilangan taqdir	Inson qismatini, ilohiy taqdirning qat'iyligini ifodalaydi
<i>Adl</i> (عدل)	Adolat	Shaxslar yoki davlatlarning adolatli yoxud zolim ekanligini baholashda ishlatiladi

<i>Rahmat</i> (رحمة)	Mehr, shafqat	Ollohning bandalariga ko'rsatgan mehribonligi va kechirimlilikini ifodalaydi
<i>Gunoh</i> (ذنوب)	Xato, gunoh	Insonning ma'naviy xatolari va axloqiy mas'uliyati haqida tushuncha beradi
<i>Ilm</i> (علم)	Bilim, ma'rifat	Payg'ambarlar va hukamolarning donishmandligini ifodalash uchun ishlatiladi

Arabcha o'zlashmalar o'zbek adabiy tilidagi ko'plab so'zlarga nisbatan chuqurroq va kengroq ma'no ko'lamiga ega. Bu xususiyat ularning tarixiy-diniy matnlarda o'ta muhim bo'lishiga sabab bo'ladi [7].

“**Tarixi muluki ajam**” va “**Tarixi anbiyo va hukamo**” asarlarida arabizmlarning to'g'ri va o'rinli qo'llanilishi Navoiy asarining umumiy ruhiga mos keladi. Chunki bu asarlarda faqat tarixiy hodisalar emas, balki:

- ilohiy qadriyatlar,
- ma'naviy saboqlar,
- diniy-falsafiy xulosalar

ham uzviy tarzda o'z ifodasini topadi. Bu holatda arabcha o'zlashmalar orqali matnning tarixiy voqeligi bilan diniy e'tiqod o'rtasida mustahkam ko'prik quriladi.

Shu bilan birga, arabcha so'zlarning ko'pligi asarning o'z davridagi o'quvchilariga ham, zamonaviy o'quvchilarga ham diniy-ma'naviy muhitni chuqurroq his qilish imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “**Tarixi muluki ajam**” va “**Tarixi anbiyo va hukamo**” asarlarida arabcha o'zlashmalar tasodifiy leksik unsurlar emas, balki tarixiy bayonning mazmuniy aniqligi va uslubiy salobatini ta'minlovchi muhim badiiy-ilmiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, arabizmlar mazkur asarlarda bir tomondan diniy, ilmiy-ma'rifiy, madaniy-adabiy omillar ta'sirida, ikkinchi tomondan esa muallifning tarixiy haqiqatni ilohiy-axloqiy mezonlar bilan uyg'unlashtirish intilishi natijasida faol qo'llangan.

Arabcha o'zlashmalarni diniy terminologiya, siyosiy-ijtimoiy unvonlar, ilmiy-adabiy istilohlar, axloqiy-falsafiy tushunchalar hamda matn ohangini kuchaytiruvchi ibora va duolar kabi guruhlariga ajratish ularning asardagi funksional rang-barangligini ochib beradi. Ayniqsa, diniy formulalar va arabcha unvonlarning qo'llanilishi matnga muqaddaslik, jiddiylik va tarixiy ishonchlilik ohangini singdiradi; siyosiy hamda ilmiy terminlar esa bayonning terminologik aniqligini kuchaytiradi.

Navoiy tarixiy asarlaridagi arabizmlar o'zbek adabiy tili taraqqiyotida semantik boyish, ifoda madaniyatining takomillashuvi hamda diniy-falsafiy tafakkurning til vositalari orqali ifodalanishi nuqtayi nazaridan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Kelgusida mazkur masalani arabizmlarning miqdoriy chastotasi, kontekstual-semantik yuklamasi hamda Navoiy ijodining boshqa asarlari bilan qiyosiy tahlil asosida yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Navoiy A. Asarlar. 15 jildlik. XIV jild: Tarixi muluki ajam. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1967. — 272 b.
2. Navoiy A. Asarlar. 15 jildlik. XV jild: Tarixi anbiyo va hukamo / nashrga tayyorlovchi L. Xalilov. — Toshkent, 1968. — 232 b.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 jildlik. — Toshkent: Fan, 1983–1985.
4. Navoiy asarlari lug'ati. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. — 784 b.
5. O'zbek tilining imlo lug'ati / tuzuvchilar: A. Madvaliyev, E. Begmatov; muharrir N. Mahmudov. — Toshkent: Akademya, 2013.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. II jild. — Toshkent: Universitet, 2003.
8. Nishanov A. Navoiy tilida arabizmlarning fonetik-morfologik va leksik-semantik tahlili: filol. fan. nomz. dissertatsiyasi. — Toshkent, 1990.
9. Tojiboyeva M. R. Alisher Navoiyning “Ilk devon”idagi arabcha so‘zlarning leksik-semantik talqini: filol. fan. nomz. dissertatsiyasi. — Toshkent, 2011.
10. Doniyorov X. Alisher Navoiy va o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: Adabiyot va san’at, 1972.
11. Fozilov E. Qadimgi obidalar va Alisher Navoiy tili. — Toshkent: Fan, 1969.
12. Bafoyev B. Alisher Navoiy asarlari leksikasi: filol. fan. doktori dissertatsiyasi. — Toshkent, 1989.
13. Karimov A. “Farhod va Shirin” dostoni tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari: filol. fan. nomz. dissertatsiyasi. — Toshkent, 1973.